



---

# **YANGI O'ZBEKİSTONNING KONSTITUTSIYASI NEGİZİDA HAYOT QURULISHI MEXANİZMLARINIG KREATİV FAOLİĞİ: YUTUQLAR DAVOMİYİLGİ, MUAMMOLAR, YECHİMLAR**

**MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA XALQARO  
MUALLIFLAR ISHTIROKIDAGI İLMIY-AMALIY ANJUMANI**

**M A T E R I A L L A R I**

---

---

---

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**IJTIMOIY FANLAR KAFEDRASI**

**"YANGI O'ZBEKISTONNING  
KONSTITUTSIYASI NEGIZIDA HAYOT  
QURULISHI MEXANIZMLARINIG KREATIV  
FAOULLIGI: YUTUQLAR DAVOMIYLIGI,  
MUAMMOLAR, YECHIMLAR"**

**MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA XALQARO MUALLIFLAR  
ISHTIROKIDAGI ILMIY-AMALIY ANJUMANI**

**M a t e r i a l l a r i**

**"Step by step print" nashriyoti  
Andijon – 2024**

**“Yangi O‘zbekistonning konstitutsiyasi negizida hayot qurulishi mexanizmlarinig kreativ faolligi: yutuqlar davomiyligi, muammolar, yechimlar” mavzusidagi respublika xalqaro mualliflar ishtirokidagi ilmiy-amaliy anjumani materiallari. “Step by step print” nashriyoti. Andijon – 2024**

Ushbu to‘plam 2023 yil 30 aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi loyihasi umumxalq referendumida tasdiqlanib qabul qilinganligi negizida Prezidentimiz tashabbusi bilan ”Yangi O‘zbekiston” va ”O‘zbekiston – 2030 strategiyasi” vazifalaridan kelib chiqib, Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi Xalqaro mualliflar hamkorligida o‘tkazilgan respublika ilmiy-amaliy konferensiya qatnashchilari qaroriga ko‘ra chop etilmoqda.

Mazkur to‘plam o‘z ichiga O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi loyihasiga asoslangan holda 2024-yil 20 may kunlari Andijon davlat pedagogika institutida xalqaro mualliflar hamkorligida o‘tkazilgan respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari asosida tayyorlandi.

To‘plamda berilayotgan ilmiy, amaliy va ommabop maqolalar, tezislar, esselar mualliflar tomonidan o‘z fikr-mulohazalari ilmiy, erkin, tezis tarzida bayon etilgan bo‘lib, tahririyat tomonidan Konstitutsiyamizning 81, 82 –moddalariga Ommaviy axborot vositalariga e’tibor va “Senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi” talabining ijrosi ta’minlandi. Keltirilgan matnlardagi barcha fikr-mulohazalar va materiallar uchun mualliflar o‘zlari mas’uldirlar. To‘plamga kiritilgan materiallar jamiyatimiz a’zolari, yoshlar, barcha ilmiy tadqiqot xalqaro mualliflar olib borayotgan, o‘z ma’rifatini yuqori darajaga ko‘tarishga intilayotgan barcha fuqarolarga qaratilgandir.

**ISBN: 978-9910-769-61-0**

**9830**



воздействия химических, физических, биологических и иных факторов, не смотря на проводимые меры, угроза наступления чрезвычайных ситуаций сохраняется. Однако комплексная политика позволит сохранить и приумножить природные богатства России.

## **MARKAZIY OSIYODA SOG'LOM TURMUSH TAMOYILLARI INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA**

*Shirinov Anvar Qanoatovich, Buxoro davlat universiteti,  
Yurisprudensiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasi dotsenti,  
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Kalit so'zlar:** inson kapitali, sog'lom turmush tarzi, inson taraqqiyoti, yashil taraqqiyot, "inson – jamiyat – davlat" tamoyili  
**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Markaziy Osiyo davlatlarida inson kapitalini rivojlanterish va sog'lom turmush tamoyillari inson kapitalini rivojlanterish omili sifatida ko'rob chiqilgan.

**Keywords:** human capital, healthy lifestyle, human development, green development, the principle of "Man – society – state"

**Abstract.** This article examines the principles of human capital development and a healthy lifestyle in the Central Asian states as a factor in the development of human capital.

**Ключевые слова:** человеческий капитал, здоровый образ жизни, развитие человека, зелёное развитие, принцип "Человек – общество – государство".

**Резюме:** В данной статье рассматриваются принципы развития человеческого капитала и здорового образа жизни в государствах Центральной Азии как фактор развития человеческого капитала.

**Kirish.** Jahon ilm-fanida jadal sur'atlarda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, dinamik o'zgarishlar inson taraqqiyoti konsepsiyasiga barqaror taraqqiyot, resurs-tejamkor texnologiyalarning tatbiq etilishini, adolatli ijtimoiy siyosat yurgizish strategiyalardan muvofiqini tanlashni va ijtimoiy davlatning asoslarini mustahkamlashni taqozo etmoqda. Inson taraqqiyoti strategiyalarining takomillashuvi ijtimoiy, iqtisodiy va mintaqaviy

munosabatlarni rivojlantirish, yoshlarning salohiyatini ro‘yogga chiqarish uchun zarur sharoit yaratish, ilm-fan, ta’lim sohalarini yangi bosqichga ko‘tarishni talab etadi. Inson kapitalini rivojlantirishning xalqchil davlat qurish, resurs tejamkor texnologiyalardan foydalanish, ma’naviy va ma’rifiy islohotlar izchilligini ta’minlash va aholining turli qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashga oid tamoyillarining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berish dolzARB ahamiyat kasb etmoqda.

**Metodologiya.** Jahon ilm-fani va tadqiqot markazlarida Markaziy Osiyoda inson taraqqiyoti konsepsiyasining amalgaga oshirilishi, barqaror rivojlanish, oziq-ovqat xavfsizligi, munosib mehnat sharoitini ta’minlash, yashil o‘sish, ekologik barqarorlik va aholining turli qatlamlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Inson taraqqiyotida “**inson – jamiyat – davlat**” tamoyilining ustuvorligini ta’minlashda, global, mintaqaviy, milliy rivojlanishni ta’minlovchi inson taraqqiyoti ko‘rsatkichlarini, inson kapitalini oshirishda eng maqbul yechimlarni topish muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Inson kapitalini rivojlantirishning munosib mehnat sharoitini ta’minlash, inson kapitalining rivoji, ijtimoiy-iqtisodiy farovonlik, sifatli ta’lim, sog‘lijni saqlash indikatorlarining inson taraqqiyoti konsepsiyasidagi o‘rnini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

XX asrning yutuqlari: biotexnologiyalar, biometrika, simsiz texnologiyalar, DNK tahlili, muqobil energiya bilan ishlovchi dvigatellar, kompyuter, lazer, genlar ustida olib borilgan tadqiqotlar, nanotexnologiyalar, prosessor va kompyuter chiplari, raqamli qurilmalar, koinot tadqiqotlari, optik tola, skanerli texnologiyalarning kashf etilishi negizida insonning taraqqiyotini ta’minlash maqsadi turibdi. Mintaqa davlatlarining taraqqiyot modellarida inson salohiyati omiliga katta e’tibor berilganligi jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilingan “Sog‘liq Deklaratsiyasi” ning 1978 yil 12 sentyabrda Olmaotada qabul qilinganligi misolida ko‘rsatilgan[1]. O‘zbekiston Jahon Banki bilan 2022 yilda 2022-2026 yillar uchun mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga hamohang 2026 yilgacha Mamlakat dasturini shakllantirdi.

BMT TD Karbon jamg‘armasining Yashil investitsiyalar sxemasini amalga oshirish bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi qo‘mita tashkil etildi[2]. 2018 yil 27 noyabrda BMT shafe’ligida Orolbo‘yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘ptomonlama sheriklik asosida trast fondi tuzildi. 2018 yilda Orol fojiasi oqibatlarini bartaraf etishda Orolbo‘yi hududini Ekologik innovasiya va texnologiyalar zonasini deb e’lon qilindi.

Turkmanistonda ham so‘nggi yillarda islohotlar sur’ati tezlashmoqda. Orol falokatining oldini olish maqsadida oxirgi 20 yil davomida Yashil belbog‘ milliy dasturi asosida 90 mln. daraxt o‘tqazildi[3]. 2013-2020 yillarda O‘zbekiston bolalar va majburiy mehnatni bartaraf etishda katta natijalarga erishdi[4]. 2017 yilda O‘zbekiston Senatining kafolatlangan mehnat huquqlari bo‘yicha komissiyasi tashkil qilindi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda yashaydigan kishining boy mamlakatda yashaydigan kishiga qaraganda iqlim o‘zgarishlari bilan bog‘liq ofatlardan aziyat chekishi ehtimoli 79 baravar yuqoridir [5]. U inson taraqqiyotini ta’minlash, qashshoqlik va savodsizlik bilan kurashish, ta’lim va gender tengligini ta’minlashga mo‘ljallangan.

Globallashuv jarayoni O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatlar tomonidan ishlab chiqilgan umumjahon turmush andozalariga keltirish jarayoniga jalb qiladi. Markaziy Osiyoda BMTning tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha konvensiyalariga qo‘shilish, milliy va mintaqaviy harakat dasturlari, transchegaraviy loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari o‘zining samarasini bermoqda.

2015 yil BMT va jahon tarixida katta iz qoldirdi. 189 davlat rahbari qatnashgan sammitda o‘z yechimini kutib turgan dolzarb muammolar muhokama qilindi. Bu jahonda qashshoqlikni kamaytirish, yuqumli kasallikkarni bartaraf etish va atrof-muhitni himoya qilish uchun bo‘lgan imkoniyatdir. 2020 yilda O‘zbekiston 2021-2025 yillarga mo‘ljallangan BMT Barqaror rivojlanish hamkorligi bo‘yicha Hamkorlik Dasturini qabul qildi. 2021 yilda O‘zbekiston mintaqada ilk davlat sifatida 3 yilga mo‘ljallangan 235 mln. AQSh doll.ga teng o‘z suveren bondlarini joylashtirdi. Bondlar BRMlardan Ta’lim (BRM 4), Suvdan foydalanish (6), Sog‘liqni

saqlash (3), Yashil transport tizimlari (BRM 11), Havoning ifloslanishining nazorati (11), Tabiiy zahiralarni boshqarish (15) va Yashil energiya (7) sohalariga yo‘naltirilganligi qayd etiladi.

Hamkorlar tomonidan amalga oshirilgan sa’y-harakatlarga ko‘ra silga qarshi preparatlar bilan ta’minlash, sil tashxis qiladigan laboratoriylar tarmog‘ini yaratish, davolashning samaradorligini oshirishda muayyan yutuqlarga erishildi. O‘zbekiston hukumati sil kasalligini 2050 yilgacha yo‘q qilish majburiyatini o‘z zimmasiga olgan. Bunda YuSAID hamkor tashkilotlardan biri bo‘lib GeneXpert uskunasini O‘zbekistonga yetkazib berdi.

Jahon Banki va Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi Qирг‘изистонning bu dasturda ishtirok etishini o‘рганишмокда. Dastur qashshoq davlatlarning qarzidan voz kechishni nazarda tutadi. Qирг‘изистонning 1992-2022 yillarda tashqi qarzi 9.2 mlrd. AQSh dol.dan ziyoddir. Bu ko‘rsatkich O‘zbekistonda 39,6, Qozog‘istonda 161, Tojikistonda 3.7, va Turkmanistonda 1,35 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan[6].

Turkmaniston BMT Bosh Assamleyasining 72-sammitida “BRMga erishish maqsadida barcha transport turlari aloqasini rivojlantirish buyicha rezolyusiyani qabul qilish va BMT darajasida Barqaror transport yilini e’lon qilish goyasini ilgari surdi. Shuni alohida qayd eta olamizki, inson taraqqiyoti va kapitalini rivojlantirish insoniyat tarixidagi eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib mintaqada yashovchi 73 million kishi uning ta’siri ostidadir va ularning hayotini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash Markaziy Osiyoning barqaror taraqqiyotini ta’minlaydi. Bunda BMTning BRM Dasturi inson taraqqiyoti ko‘rsatkichlarini yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mintqa mamlakatlarida inson taraqqiyoti masalalarini yechishda umumiy strategiyaning yo‘qligi salbiy tendensiyadir.

**Xulosa.** Mintqa davlatlari inson manfaatlariga mo‘ljallangan siyosat va rejalarda yetakchi rolni o‘ynashi kerak. Gender tengligi, ayollarni qo‘llab-quvvatlash, OIV/OITS, bezgak va boshqa kasalliklarga qarshi kurash, suv va sanitariya muammolarini milliy strategiyalarga tatbiq qilish, atrof-muhit barqarorligini ta’minlash,

rivojlanish uchun mintaqaviy va global sherikchilikni kengaytirish mintaqa mamlakatlarining XXI asrdagi taraqqiyotini ta'minlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Алма-Атинская декларация //  
<https://apps.who.int/iris/handle/10665/347882>
2. Киото Протоколининг Мусаффо ривожланиш механизми доирасида “Ўзтрансгаз” акциядорлик компаниясининг компрессор станцияларида табиий газ сизиб чиқишини камайтириш лойиҳасини амалга ошириш чоратадбирлари тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори. 298 // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. №26(370) 2009 йил 29 июнь. 14-16 б.
3. Berdimuhamedov G. Regional Consensus the Only Prospect for Tackling Environmental Issues <http://tdh.gov.tm/news/en/articles.aspx&article14215&cat26> Date of access 24.08.2018
4. Astrup J. 2020 Third-party monitoring of child labour and forced labour during the cotton harvest in Uzbekistan. International Labour Organization. –Geneva. 2021. P. 71.
5. 2023 Gender social norms index (GSNI) //  
<https://hdr.undp.org/content/2023-gender-social-norms-index-gsni#/indicies/GSNI>
6. Национальный статистический комитет Кыргызской Республики // <http://www.stat.kg/ru/opendata/category/34/>; Ўзбекистон Марказий Республикаси // [https://cbu.uz/upload/medialibrary/17d/uz\\_BOP\\_-IPR\\_-EXD\\_4Q2021.pdf](https://cbu.uz/upload/medialibrary/17d/uz_BOP_-IPR_-EXD_4Q2021.pdf); Национальный банк Казахстана // <https://nationalbank.kz/ru/news/vneshniy-dolg#>; Национальный банк Таджикистана// <https://nbt.tj/ru/statistics/tavozuni-pardokhti-jt/karzi-majmii-berunai-jumhurii-tojikiston>; Государственный банк внешне экономической деятельности Туркменистана // <https://www.hronikatm.com/2021/09/gdp-shenanigans/>

|   |            |
|---|------------|
| <b>ОИЛАНИНГ ЎРНИ.....</b>   | <b>74</b>  |
| <b>Аскаров Шакирджан Махмудович доцент, Камалов Самир Шавкатович СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА; ПРОБЛЕМЫ И КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ИХ РЕШЕНИЕ.....</b>  | <b>79</b>  |
| <b>Karamatov Hasan Abdulhoshim YANGI O'ZBEKISTON – DUNYO NIGOHIDA .....</b>   | <b>83</b>  |
| <b>Abdurahmonova Mohira HUQUQIY MA'RIFAT VA INSON MA'NAVIYATI UYG'UNLIGI OMILINING YANGI JAMIYAT QURILISHIDA KREATIV HAYOT ZARURIYATI.....</b>  | <b>86</b>  |
| <b>Абдразакова Ю.Р. РАЗРЕШЕНИЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ ЧАСТНОПРАВОВЫХ СПОРОВ В СЕМЕЙНОМ ПРАВЕ .....</b>   | <b>92</b>  |
| <b>Xolliyeva Durdona Dilmurod qizi Abdumuxtarov Dilyorbek Farxotjon o'g'li KONSTITUTSIYA – TARAQQIYOTIMIZNING HUQUQIY ASOSI .....</b>   | <b>95</b>  |
| <b>Абросимов И.С. СТАНОВЛЕНИЕ ПОНЯТИЙ “ТЕРРОП” И “ТЕРРОРИЗМ” .....</b>  | <b>99</b>  |
| <b>Abdullahayev Elmurod, Akbaraliyev Shoxruxbek Alisher o'g'li HUQUQIY MA'RIFAT VA INSON MA'NAVIYATI YANGI JAMIYAT QURILISHIDA ZARURIYATI.....</b>  | <b>102</b> |
| <b>Сергеева А.В. ОСОБЕННОСТИ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЮРИДИЧЕСКИХ ЛИЦ ЗА ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРАВОНАРУШЕНИЯ .....</b>  | <b>107</b> |
| <b>Shirinov Anvar Qanoatovich MARKAZIY OSIYODA SOG'LOM TURMUSH TAMOYILLARI INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA .....</b>   | <b>109</b> |
| <b>Saodatxon Alijanova YANGI KONSTITUTSIYANING JAMIYAT HAYOTIGA TATBIQ ETILISHI VA QABUL QILINISHI .....</b>  | <b>114</b> |
| <b>Суркис И.В. АНАЛИЗ МЕР ПОДДЕРЖКИ И АДМИНИСТРАТИВНЫХ БАРЬЕРОВ ДЛЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА НА ФЕДЕРАЛЬНОМ И РЕГИОНАЛЬНОМ УРОВНЯХ.....</b>  | <b>118</b> |
| <b>Худякова О.Н ДЕМОГРАФИЧЕСКАЯ СИТУАЦИЯ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ГОСУДАРСТВА .....</b>   | <b>120</b> |
| <b>Asqarov Muxammadqodir Shokirjon o'g'li. O'ZBEKISTONDAGI ISLOXIY O'ZGARISHLAR MAQSADI - YOSHLAR ONGI, TAFAKKURI VA IJTIMOYI XAYOTGA QIZIQISH MA'RIFATINI YUKSALTIRISHDIR.. .....</b>                                  | <b>122</b> |
| <b>Якушева А.М. ВОЗМЕЩЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ВРЕДА В НАТУРАЛЬНОЙ ФОРМЕ</b>   | <b>127</b> |
| <b>Atabayeva Nigora Maxmudjanovna, Axmedova Oltinoy Oybek qizi KONSTITUTSIYA - SHA'NIM HIMOYACHISI. ....</b>  | <b>129</b> |
| <b>Yunusova Zarifaxon Abduvaxobovna, Oltinboyeva Sevinch O'ZBEKISTONDA BOZOR MUNOSABATLARING RIVOJLANISHI VA UNING AHOLI TURMUSH TARZINING YAXSHILANISHIDAGI AHAMYATI.</b>  | <b>132</b> |
| <b>Yunusova Zarifaxon Abduvaxobovna, Saibova Gulasalxon, Ismoilova Umida MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN O'ZGARISHLAR .....</b>                                      | <b>136</b> |
| <b>Sh.Sh Usmanova, Madaminova Dilxazina, Shavkatova Muzifa YANGI O'ZBEKISTONNING YANGILANGAN KONSTITUTSIYASI NEGIZIDA HAYOT QURILISHI MEXANIZMLARINING KREATIV FAOLLIJI; YUTUQLAR DAVOMIYLIGI, MUAMMOLAR, YECHIMLAR</b> | <b>138</b> |